

ALEKSANDR FAYNBERG: ILHOM, IJOD VA HAYOT FALSAFASI

Muhammadjonova Dildoraxon Sultonmahmud qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

E-mail: dildoramuhhammadjona1@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada rusiyabon shoir Aleksandr Arkadyevich Faynbergning ijodi tahlil qilinadi. Maqolada uning faqat she'riyatdagi emas, balki boshqa adabiy va san'at sohalaridagi faoliyatiga ham e'tibor qaratilgan. Faynberg asarlarida qanday mavzularni qalamga olgani va o'quvchilarga qanday ma'no yetkazmoqchi bo'lgani yoritiladi. Shuningdek, shoirning ijodiy yo'lidagi qiyinchiliklar va uning shoir sifatida shakllanishiga ta'sir qilgan omillar haqida ham fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar. Shoир ichki dunyosi va zamonasi, "Amerika ovozi", "Saodat sohili", "Paxtakor-79", ssenariy muallifi, tarjimon.

Kirish. O'zbek va rus adabiyoti o'rtasidagi mustahkam madaniy aloqalar ko'plab ijodkorlar tomonidan rivojlantirilgan. Ulardan biri – Aleksandr Arkadyevich Faynberg bo'lib, u o'zining betakror she'riyati, tarjima faoliyati va ssenariylari bilan o'zbek kitobxonlariga ham tanilgan. Faynbergning ijodi faqat badiiy go'zallik bilan cheklanmay, balki hayot falsafasi, insoniy qadriyatlar va tarixiy voqealar tasviri bilan ham boyidir. Ushbu maqolada shoirning ijodiy faoliyati, uning asarlarida yoritilgan mavzular, tarjima sohasidagi hissasi va san'atdagi o'rni atroflicha tahlil qilinadi.

Ilmiy adabiyotlar. Aleksandr Faynbergning ijodi haqida yozilgan manbalar juda ko'p bo'lmasa-da, adabiyotshunoslar tomonidan uning she'riyati va tarjimalari tahlil qilingan bir nechta maqolalar mavjud. Rashidov (1979) o'zining O'zbek adabiyotida XX asr shoirlari kitobida Faynbergning ijodiga qisqacha to'xtalib o'tgan. Unga ko'ra, shoirning asarlari faqat rus tilida yozilgan bo'lsa ham, ular o'zbek kitobxonlari orasida ham keng tarqalgan.

Karimov (2002) o‘zining O‘zbek va rus she’riyati aloqalari kitobida Faynberg tarjimon sifatida ham faol bo‘lganini qayd etadi. Aynan uning tarjimalari tufayli o‘zbek adabiyotining ko‘plab durdona asarlari rus kitobxonlariga tanishtirilgan.

Bundan tashqari, Amerika Ovozi (2020) tomonidan e’lon qilingan maqolada shoirning siyosiy bosimlar ostida ijod qilgani va ba’zi davrlarda uning asarlari nashr etilishida qiyinchiliklarga duch kelgani haqida ma’lumot berilgan.

Faynbergning hayoti va ijodiy faoliyati

Toshkentning qadimiylaridan biri bo‘lmish Taxtapulda tug‘ilib o‘sgan Aleksandr Arkadyevich Faynberg ijodiy faoliyati bilan she’riyat olamida o‘chmas iz qoldirgan shoirlardan biridir. U asarlarida, asosan, o‘zining ichki kechinmalarini va zamonasining ruhini aks ettirgan. Har bir inson hayotida qiyinchiliklar bo‘lgani kabi, Faynberg ham hayotining turli davrlarida murakkab sinovlarni boshdan kechirgan. Texnikumda tahsil olgan, harbiy xizmatni o‘tagan, topografiya sohasida faoliyat yuritgan. Aynan shu davrlarda u she’riyatga bo‘lgan ishtiyoqini anglab yetgan va ijodiy faoliyatini boshlab yuborgan. Shoirning o‘zi ta’kidlaganidek, u bolaligida ham she’rlar yozgan, biroq haqiqiy ijodga armiyadan qaytgach, jiddiy yondashgan.

Adabiy muhit va to‘siqlar

1960-yillarda Toshkent Markaziy Osiyoning eng rivojlangan madaniy markazlaridan biriga aylana boshlagan davr edi. Turli adabiy kechalar, shoirlar bilan uchrashuvlar, spektakllar ommalashgan bo‘lib, Faynberg ana shunday adabiy anjumanlarning faol ishtirokchilaridan biri bo‘lgan. O‘sha davrda u keng kitobxonlar ommasi orasida mashhurlikka erishgan.

Biroq uning faoliyatida muammolar ham bo‘lgan. “Amerika ovozi” radiosiga vakillari Faynbergning iste’dodini yuqori baholagan bo‘lsalar-da, ayrim zamondoshlari uni chet el bilan aloqa qilganlikda ayblashgan. Bu esa shoirning yangi asarlarini chop etishiga jiddiy to‘sinqilik qilgan. Shunga qaramay, Faynberg ijoddan to‘xtamagan, kino va tarjima sohasida ham samarali faoliyat olib borgan. U bir qator

filmlar uchun ssenariy yozgan hamda o‘zbek adabiyotining durdona asarlarini rus tilida tarjima qilib, keng kitobxonlar ommasiga yetkazgan.

Faynberg she’riyatining o‘ziga xosligi

Faynberg she’riyatidagi mavzular xilma-xilligi bilan ajralib turadi. U ba’zan hayot falsafasi, ba’zan tabiat tasviri, ba’zan esa o‘sha davrning siyosiy muhitini yoritgan. Uning “Saodat sohili” she’rida insonning baxt izlash haqidagi kechinmalari aks etgan:

Men dengizchilardan bu haqda so‘rdim,

Dedilar: – Izlama, ko‘ngling bo‘lsin to‘q.

Barcha dengiz, barcha ummonni ko‘rdik,

Saodat sohili yer yuzida yo‘q.

Shoir inson baxti tashqarida emas, balki uning o‘z qo‘lida ekanligini anglatmoqchi bo‘lgan. U ko‘pchilik insonlar uzoq baxt izlab sarson bo‘lishlari, biroq aslida, ularning orzu qilgan narsalari yonlarida ekanligini she’r orqali ifodalagan.

Faynbergning yana bir she’ri so‘zning inson hayotidagi muhim o‘rnini aks ettiradi:

Poyezd kechikishi oddiy voqeа,

Samolyotni kutib ichikadi ko‘z.

Haqiqiy baxtsizlik, katta fojea

Gar kechiksa kutilayotgan so‘z.

Ushbu satrlarda shoir insonlarning bir-biriga aytishi kerak bo‘lgan muhim so‘zlarni kechiktirmasligi lozimligini ta’kidlaydi. Faynbergning kuz fasliga bag‘ishlangan she’rlari ham juda mashhur bo‘lib, u aynan kuz manzaralarini tasvirlashni yaxshi ko‘rgan.

Faynberg o‘zbek futbol tarixidagi eng fojeaviy voqealardan biri – Paxtakor-79 jamoasining aviahalokat qurbaniga aylangan futbolchilar xotirasiga bag‘ishlangan bir nechta she’rlar yaratgan. Shuningdek, u “Osmondagি stadion” nomli hujatli film uchun ssenariy yozgan.

Maysazorda shamol yig‘laydi hamon,
Hamon tunlar ko‘z yosh to‘karsan giryon.
Qayg‘urma, biz hamon o‘ynaymiz futbol,
Faqat moviy osmon – bizning stadion.

Bu she’rlarda Faynberg futbolchilarning yodini abadiy saqlash, ularning izdoshlari bardavom bo‘lishini ifodalashga harakat qilgan.

Xulosa. Aleksandr Faynberg ijodi nafaqat she’riyat bilan cheklanib qolmagan, u tarjimon, ssenariy muallifi va ko‘p qirrali ijodkor sifatida tanilgan. Uning asarlari rus tilida yozilgan bo‘lsa-da, o‘zbek kitobxonlari orasida ham keng muxlislar auditoriyasiga ega. Faynbergning ijodiy merosi har qanday zamonda o‘zbek va rus adabiyoti tarixida muhim o‘rin tutishda davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Faynberg, A. A. (1985). Izbrannye stikhi [Tanlangan she’rlar]. Tashkent: Gafur Gulyam Publishing House.
2. Karimov, A. (2002). O‘zbek va rus she’riyati aloqalari. Tashkent: Akademnashr.
3. Xudoyberdiyev, S. (2010). “Aleksandr Faynberg ijodi: she’riyat va tarjima”. Adabiyotshunoslik jurnali, 15(3), 45–60.
4. Amerika Ovozi. (2020). “Aleksandr Faynberg haqida esdaliklar”. Amerika Ovozi rasmiiy sayti. Retrieved from <https://www.amerikaovozi.com>

5. <https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/15-jahon-she-riyati?download=13512:aleksandr-faynberg-qoralanmaga-qasida-2021>

6. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/hozirgi-davr-Matbuoti/rustam-musurmon-yonib-turar-derazam-har-tun-2009>.